SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-son (5-jild)
2025

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V5I10Y2025

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

***№ 10 (5) – 2025***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**TOSHKENT-2025**

**BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**TAHRIR HAY'ATI:**

*07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo oʻgʻli – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar boʻlimi.

*08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod Oʻktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b,;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent,;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD).

*09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Joʻraboy – falsafa fanlari doktori, professor;

Gʻaybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Moʻmin – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Oʻroqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

*10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Koʻchimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov Gʻaybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Togʻayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

*12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat Gʻaybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Joʻrayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom oʻgʻli — yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

*13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD).

*19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

*22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Poʻlatovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Boʻtayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

**OAK Ro‘yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 10-son (oktyabr, 2025). - 538 bet.

**MUNDARIJA**

## 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Jahongirov Burxon*
OʻZBEKISTON VA BUYUK BRITANIYA MUNOSABATLARI ........ 13-18

*Kenjayev Sardor Nurmurod oʻgʻli*
AMIR TEMUR DAVRIDA MINTAQADA KATOLIK CHERKOVI FAOLIYATI ........ 19-23

*Atamuratova Dilafruz Rashidovna*
XORAZM TARIXINI OʻRGANISHDA "TARJIMON" GAZETASINING AHAMIYATI ........ 24-28

*Karimbayeva Salomatxon, Isxakov Bexzod Barkamalovich*
FARGʻONA VODIYSI OʻZBEKLARI MODDIY MADANIYATIGA
DOIR QARASHLAR TAHLILI ........ 29-34

*Лукашова Наталья Михайловна*
ИСТОРИЯ ТАШКЕНТА 30-Х ГОДОВ XVIII - ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА,
ПРЕДСТАВЛЕННАЯ В РУССКИХ ИСТОЧНИКАХ ........ 35-40

*Asadova Ra'no Baymanovna*
1991–2025-YILLARDA OʻZBEKISTON-HINDISTON DIPLOMATIK
VA TA'LIMIY HAMKORLIGINING RIVOJLANISHI:
TARIXIY ASOSLAR VA ZAMONAVIY ISTIQBOLLAR ........ 41-44

*Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich*
ETNOIQTISODIYOT XOʻJALIK FAOLIYATI SEGMENTI SIFATIDA, UNING OʻZIGA XOS
XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA SHAKLLARI ........ 45-52

*Tursunov Farrux Gʻulomovich*
QASHQADARYO VOHASI TOJIKLARINING HUNARMANDCHILIK TAOMILLARIDAGI
OʻZGARISHLAR ........ 53-58

*Mullajanova Xosiyat Yazdankulovna*
XIX ASR OXIRIDA RUS GEOGRAFIK JAMIYATNING ILMIY TADQIQOTLARI
VA ULARNING XUSUSIYATLARI ........ 59-63

*Муминов Азизбек*
ИСТОРИЯ ЖИЗНИ И НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РАФАЭЛЯ ПАМПЕЛЛИ,
ПРИЕХАВШЕГО В ТУРКЕСТАН В НАЧАЛЕ XX ВЕКА ........ 64-69

*Suyarov Maxmudjon Sobirjon oʻgʻli*
YUNON-BAQTRIYA TANGALARIDA AYOLLAR OBRAZI – DINIY-SIYOSIY
RAMZ SIFATIDA ........ 70-74

*Tuyev Fazliddin Erkinovich*
BUXORO, NAVOIY VA SAMARQAND VILOYATLARIDAGI MUZEYLARINING XORIJIY
ALOQALARI ........ 75-80

*Mamatqulov Bekzod Sherozovich, Shonazarov Elnur Abbos oʻgli*
QASHQADARYO VILOYATIDA AYOLLAR BANDLIGI VA YENGIL SANOAT
TARMOQLARINING IJTIMOIY-IQTISODIY ROLI:
TARIXIY TAHLIL VA NATIJALAR ........ 81-85

*Jumayeva Shohida Choriyevna*
SURXONDARYO VILOYATIDA CHORVACHILIK SOHASIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASH JARAYONIDAGI TARKIBIY O‘ZGARISHLAR ........ 86-90

*Azatov Allayar*
RIVOJLANGAN O‘RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDA QUYI AMUDARYO HAVZASI VA "XORAZM DENGIZI" TO‘G‘RISIDAGI MA'LUMOTLAR ........ 91-99

*Ro‘ziyeva Mashxura Abdimuminovna*
LO‘LILARDA O‘ZLIKNI ANGLASHNING ZAMONAVIY JIHATLARI ........ 100-105

*Orunbayev Aslı*
IKKINCHI MASHRUTIYAT JARAYONIDA JÖN TURKLAR HARAKATI VA RESPUBLIKA G‘OYALARINING SHAKLLANISHI ........ 106-113

*Matyaqbov Toyirjon Sultanbayevich*
XORAZM VOHASI NEOLIT DAVRI O‘RTA BOSQICHI KULOLCHILIGI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR ........ 114-116

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna, Abdujalilov Xojiakbar Abdujalil o‘g‘li*
O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XUSUSIY SEKTORNING O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI ........ 117-122

*Bazarova Gulnora Gulamovna*
O‘ZBEKISTON IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI.(UMUMIY MAQSADLAR YO‘LIDAGI RIVOJLANISH)........ 123-127

*Yadiyarova Shahnoza*
THE ROLE OF THE MARKETING SYSTEM IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF LOCAL ENTERPRISES ........ 128-135

*Нурмуродов Камолиддин Пирмаматович*
НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ К ПОНЯТИЮ ФИНАНСОВЫЕ РЕСУРСЫ ........ 136-141

*Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna*
O‘RMON XO‘JALIGINI MOLIYALASHTIRISHNING BYUDJET VA BYUDJETDAN TASHQARI MANBALAR HISOBIGA MOLIYALASHTIRILISHI ........ 142-146

*Olimjonova Sexriyo Muzaffar qizi*
TURIZM INDUSTRIYASI VA MEHMONDO‘STLIK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ........ 147-150

*Anvarova Muhsinakhon Otabek kizi*
THE ROLE OF BIOSPHERE RESERVES AND NATIONAL PARKS IN TOURISM ........ 151-154

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Yusupova Ranoxon Tolibjonovna*
TECHNICAL DEVELOPMENT AS AN ETHICAL-STRATEGIC RESOURCE ........ 155-158

*Adilov Zafar Yunusovich*
MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING INSON KAMOLATI HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI ........ 159-165

*Xo'janova Tamara Jo'raevna*
YANGI DAVR VA HOZIRGI ZAMON FALSAFASIDA AXBOROT URUSHLARINI O'RGANISHNING PARADIGMALARI ........ 166-170

*Narziyev Zubaydillo Ibodilloyevich*
AZIZIDDIN NASAFIYNING "ZUBDAT UL - HAQOYIQ" ASARI TASAVVUF FALSAFASIGA OID MUHIM MANBA ........ 171-175

*Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna*
YOSHLARDA MA'NAVIY VA AXLOQIY QIYMATLAR: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY O'RTASIDAGI TENGSIZLIKLAR VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI ........ 176-179

*Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich*
UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL-MAORIF" ASARINING IJTIMOIY-AXLOQIY TAHLILI ........ 180-185

*Shamsutdinova Nigina Karimovna*
ABU ALI IBN SINO IRFONIY QARASHLARI: «TA'BIRI MANZIL» ASARI MISOLIDA ........ 186-190

*Pardayeva Marhabo Davlatovna*
"ODAMIYLIK" TUSHUNCHASINING ZAMONAVIY KONTEKSTDA TRANSFORMATSIYASI ........ 191-197

*Aripova Zulfiyaxon Solijonovna*
SHARQ FALSAFASIDA IJTIMOIY ADOLAT TAMOYILLARI: FOROBIYNING FALSAFIY MEROSI MISOLIDA ........ 198-203

*Muxtorova Tutixon*
ZAMONAVIY DUNYODA YOSHLARNING MA'NAVIY-RUHIY BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MASALALARI ........ 204-211

*Xakimov Abdulboqi*
YOSHLARDA MANTIQIY VA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFANING AHAMIYATI ........ 212-216

*Sardorbek Jabbarov Buron o'g'li, Mirzakhmedov Abdurashid Mamasidiqovich*
ISTE'MOLCHILIK JAMIYATIDA AHOLINING ISTE'MOL ME'YORI ........ 217-224

*Taniqulov Jonibek Ashirkulovich*
TA'LIM MADANIYATI VA UNING FALSAFIY FUNDAMENTLARI: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR, GNOSEOLOGIK ILDIZLAR VA AKSIOLOGIK TAHLIL ........ 225-229

*Бердалиева Севара Дамировна*
СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРУДОВ АЛЛАМА ЮСУФА ХОСА ХАДЖИБА В РЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ ЭТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ ........ 230-234

*Хушбоков Ойбек Уралович*
СОВРЕМЕННАЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОНЦЕПТОСФЕРА УЧИТЕЛЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ ........ 235-239

*Fayziyev Xurshid Jumayevich*
VOLTER DAVRIDA FRANSIYADA MA'NAVIY MIHITNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 240-244

*Muxiddinova Xakimaxon G'ulomovna*
EKOLOGIK TAFAKKUR VA YASHIL IQTISODIYOT – UCHINCHI RENESSANSNING YANGI FALSAFIY PARADIGMASI SIFATIDA ........ 245-250

*Zokirov Mirzo*
MAMLAKATLARNING TANAZZUL VA TARAQQIYOTINI BELGILOVCHI IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLAR ........ 251-255

## 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

*Joʻrayev Nabi Narziyevich*
OʻZBEK MILLIY LINGVOMADANIYATINING QADIMIYLIK VA ZAMONAVIYLIK ASOSLARI ........ 256-262

*Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna*
PRAGMATICS OF GENDERED COMMUNICATION IN ENGLISH ........ 263-267

*Zaripova Matluba Kulfidinovna*
GRAMMATICAL MEANS OF EXPRESSING PEJORATION IN UZBEK AND RUSSIAN ........ 268-271

*Sayipova Dilobar Raximovna*
ADABIYOT FANIGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINING AHAMIYATI ........ 272-275

*Soibova Gulchiroy Bakhtiyorjon qizi*
TRANSLATION ISSUES IN THE GENERAL AND SPECIFIC OCCURRENCE OF THE HORSE IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES ........ 276-281

*Zokirova Shaxzoda Nodirjon qizi*
TELEVISION AS A RHETORICAL ARENA: THE MANIFESTATIONOF CLASSICAL RHETORICAL CANONS IN MODERN TV GENRES ........ 282-288

*Abdujalilova Ruxshona Abdugʻafforzoda*
INGLIZ VA OʻZBEK TILLARIDA KRIMINALINGVISTIK BIRLIKLARNING SHAKLLANISHINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI ........ 289-293

*Abduraximova Feruza Boxadirovna*
OʻZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OT YASOVCHI QOʻSHIMCHALARNING QIYOSIY TAHLILI ........ 294-300

*Jalolova Feruza Normurodovna*
INGLIZ VA OʻZBEK XALQ ERTAKLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI ........ 301-305

*Ahrorova Nigina Anvarovna*
MIFOLOGIK TASAVVURLAR MUAYYAN VOQELIK MOHIYATI ........ 306-309

*Razikov Baxtiyor Kosimovich*
MEMLAR TILIDAGI NEOLOGIZM: QOIDABUZARLIKMI YOKI INNOVATSIYAMI? OʻZBEK RAQAMLI DISKURSI MISOLIDA ........ 310-314

*Kutbiddinova Nazokatkhon Dovudkhon qizi*
GENDER-BASED DIFFERENCES IN THE USE OF PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES ........ 315-319

*Nazarova Sabrina Zafarjon qizi*
YOZMA NUTQDAGI GRAMMATIK BUZILISHLAR: AGRAMMATIK DISGRAFIYANING LINGVISTIK VA NEYROPSIXOLOGIK ASOSLARI ........ 320-323

*Ёлдашалиева Мадина Зиёджон кызы*
ЖЕНСКОЕ СЧАСТЬЕ КАК ПРИНЯТИЕ ЛЮБВИ И ЗАЩИТЫ В ПОВЕСТИ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА «ТОПОЛЁК МОЙ В КРАСНОЙ КОСЫНКЕ» ........ 324-326

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

*Salimova Diyoraxon Baxtiyorjon qizi*
HAVO TRANSPORTIDA TASHUVCHI JAVOBGARLIGINING NAZARIY DOKTRINASI ........ 327-333

*Abdullayev Rustam Kaxramanovich*
JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA RAQAMLI DAKTILOSKOPIYANING IMKONIYATLARI ........ 334-339

*Давронов Атобек Равшанович*
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЙ СУБЪЕКТ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА: ДОКТРИНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ ........ 340-349

*Eshturdiyeva Farangiz Baxodir qizi*
O'ZBEKISTONDA HUQUQ IJODKORLIGI SIYOSATI: STRATEGIK PRINSIPLAR VA ULARGA YANGICHA NAZARIY YONDASHUV ........ 350-355

*Исламов Самандар Олимжон угли*
ПРАВАВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ КРИПТО-АКТИВОВ В СТРАНАХ СНГ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ ........ 356-363

*Uteniyazov Keulimjay Kuanыshbayevich*
AYBLOV TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQ TIZIMIDAGI O'RNI ........ 364-370

*Ikramov Abrorbek Kamoliddinovich*
ASOSSIZ BOYISH NATIJASIDA VUJUDGA KELGAN MAJBURIYATLAR ........ 371-375

*Muxitdinova Firuza, Saidakamal Mamasoliyev*
ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI ........ 376-380

*Бахриддинова Бехруза Бахриддиновна*
ХАРАКТЕРИСТИКА ОСНОВНЫХ ПОДХОДОВ К СОВРЕМЕННОМУ ПОНИМАНИЮ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА ........ 381-388

*Axmedov Dilshod Baxramovich*
MA'MURIY SUDLARDA PROKUROR ISHTIROKINI SAMARALI TA'MINLASHNING AMALIY MASALALARI ........ 389-394

*Shodmonov Farrux Fayzullo o'g'li*
DAVLAT BOSHQARUVIDA TRANSCHEGARAVIY SUVLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI ........ 395-401

*Bozorov Ulug'bek*
TEXNIKA YO'NALISHI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI KASBIY-HUQUQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODELI ........ 402-407

*Nurullayeva Djamilya Sayfiyevna*
O'ZBEKISTONDA SPORT TASHKILOTLARINING HUQUQIY MAQOMI VA ULARNING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI ........ 408-413

*Reymbayeva Guldaulet Kurbanbayevna*
TURIZM XIZMATI SOHASIDA ISTE'MOLCHI HUQUQLARINI HUQUQIY TA'MINLASH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI ........ 414-420

*Shirinqulov Baxtiyor Iftixor o'g'li*
MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA KO'ZDAN KECHIRISH TERGOV HARAKATINI O'TKAZISHNING TAKTIK XUSUSIYATLARI ........ 421-428

*Salomov Xumoyun*
OMMAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARDA QONUNIYLIKNI TA'MINLASHDA PROKURATURA ORGANLARINING AHAMIYATI ........ 429-433

*Kakhramonova Aziza*
THE PRINCIPLE OF INTERNATIONAL LAW ENSURING THE RIGHT OF A CHILD TO LIFE, SURVIVAL AND DEVELOPMENT AND ITS ESSENCE ........ 434-437

*Xoliqova Gavhar Ramazon qizi*
XALQARO XUSUSIY HUQUQDA ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING KOLLIZION MASALALARI ........ 438-444

*Sharipov Firdavs Xolnazarovich*
OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATIDA AYRIM YORDAMCHI TUZILMALARNING ISHTIROKI ........ 445-450

*Nugmanov Nugman Abdullayevich, Nizomova Nastarin Vladimirovna*
PARTICIPATION OF WOMEN IN SHAPING THE DIGITAL LEGAL SPACE ........ 451-456

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

*Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna*
TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARINI EMOTSIONAL VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 457-462

*Nabiullin Rishat Xismatullovich, Raxmonov Azizbek Abdullajonovich*
XORIJDA KORPORATIV SPORTNI RIVOJLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA XORIJ TAJRIBASINI JORIY ETISH ........ 463-468

*Xudayberganov Otabek Erkinovich*
BASKETBOL VOSITALARI VA MUAMMOLI O'QITISH USULLARI YORDAMIDA JISMONIY MADANIYAT FAKULTET TALABALARINING KASBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH ........ 469-474

*Nishonova Dilafruz*
O'QUVCHILARDA IQTISODIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI ........ 475-480

*Davletyarova Laylo Baxodirovna*
YENGIL ATLETIKADA TRENERLIK FALSAFASINI RIVOJLANISHI ........ 481-486

*Madrahimov Alisher Maxammadibroximovich*
O'RTA MAKTAB O'QUVCHILARI O'RTASIDA ZO'RAVONLIK PROFILAKTIKASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI ........ 487-493

*Шавилова Наталья Сергеевна*
ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА: ВЛИЯНИЕ НА МОТИВАЦИЮ И КАЧЕСТВО ОБУЧЕНИЯ ........ 494-500

*Nosirov Murod Zakirovich, Jonibekova Sevara Dilmurod qizi*
FIZIK JARAYONLARNI KOMPYUTERDA MODELLASHTIRISH ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH ........ 501-508

*Mattiyeva Feruza Begmatdulabovna*
ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TARJIMA DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH ........ 509-515

*Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi*
RAQAMLI MUHITDA OʻSMIR YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK EHTIYOJLARINING SHAKLLANISHI ........ 516-519

*Usmonqulov Joʻrabek Erkin oʻgʻli, Kubayiva Sarvinoz Asrorbek qizi*
TALABALARNING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TAʼLIMNING OʻRNI VA AHAMIYATI ........ 520-525

*Xayitova Dilovar Ismat qizi*
STEAM INTEGRATSIYASI ORQALI AXBOROT-PROTSESSUAL TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YOʻLLARI ........ 526-532

*Soliyeva Muqaddas Nurnazarovna*
THE EFFECTIVENESS OF TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) IN UZBEK CLASSROOMS ........ 533-537

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 10 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 15 September 2025
**Accepted:** 1 October 2025
**Published:** 10 October 2025

*Article / Original Paper*

# PARADIGMS OF THE STUDY OF INFORMATION WARS IN THE PHILOSOPHY OF THE NEW ERA AND CONTEMPORARY MODERNITY

**Khojanova Tamara Zhuraevna**
Associate Professor of the Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, Ph.D.
Based on the review of Professor G.K. Masharipova, Ph.D.

**Abstract.** This article analyzes the theoretical paradigms of studying information wars in the philosophy of the Modern Age and contemporary philosophy. It examines philosophical interpretations of information as a source of knowledge, power, and ideological struggle. Special attention is given to the technocratic, humanistic, geopolitical, and cultural-spiritual paradigms and their impact on social life.

**Keywords:** Modern Age philosophy, contemporary philosophy, information wars, paradigm, ideological struggle, geopolitical influence.

# YANGI DAVR VA HOZIRGI ZAMON FALSAFASIDA AXBOROT URUSHLARINI O'RGANISHNING PARADIGMALARI

**Xoʻjanova Tamara Joʻraevna**
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti dotsenti, f.f.n.
E-mail: tamaraxujanova7@gmail.com
Orcid: http://orcid.org/0000-0002-2220-9724
F.f.d., professor G.K.Masharipova taqrizi asosida

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada yangi davr va hozirgi zamon falsafasida axborot urushlarini oʻrganishning nazariy paradigmalari tahlil qilinadi. Axborotning bilim, hokimiyat va mafkuraviy kurash vositasi sifatidagi falsafiy talqinlari koʻrib chiqiladi. Shuningdek, texnokratik, gumanistik, geosiyosiy va madaniy-ma'naviy paradigmalar orqali axborot urushlarining jamiyat hayotiga ta'siri yoritiladi.

**Kalit soʻzlar:** yangi davr falsafasi, hozirgi zamon falsafasi, axborot urushlari, paradigma, mafkuraviy kurash, geosiyosiy ta'sir.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I10Y2025N28

**Kirish.** Jahonda vujudga kelgan global muammolar yechimida, ayniqsa ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tizimi barqarorligini ta'minlashda fuqarolarni ma'naviy-mafkuraviy himoyalash masalasi dolzarb hisoblanadi. Xususan, bugungi kunda global miqyosda kuchayib borayotgan ma'naviy tahdidlar, g'oyaviy-mafkuraviy xurujlar, ma'naviy buzuqliklarga qarshi jamiyatda mafkuraviy profilaktikani yanada kuchaytirish obyektiv zaruriyatdir. Ayniqsa, yoshlar ijtimoiy-demografik qatlamining mafkuraviy dunyoqarashini shakllantirish, ularning ma'naviy barqarorligi va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish, shuningdek, g'oyaviy tahdidlarga qarshi immunitet hosil qilish jarayonida mafkuraviy profilaktika muhim va samarali vosita sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** “Biz tobora koʻproq maʼlumotga va tobora kamroq maʼnoga ega boʻlgan dunyoda yashayapmiz” — deb yozgan edi J.Bodriyar oʻzining “Simulyakrlar va simulyatsiya” kitobida [1, 109-b.]. Shunday qilib, oʻtgan asr oxirida axborot inqirozini oldindan koʻra bilgan faylasuf, shunga qaramay, keyinchalik uning qanchalik chuqurlashishini tasavvur qila olmagan edi. Axborotni yashirish, buzish va yoʻq qilish, tushunchalarni almashtirish, maʼlumotlarni tekshirishni qiyinlashtirish yoki imkonsiz qilish — zamonaviy “axborot urushlari”ning muhim, ammo yagona usullari emas. Jahon axborot tarmogʻi yaratildi, biroq u kiberhujumlar, ekstremistik materiallarni joylashtirish va boshqa shunga oʻxshash harakatlar koʻrinishidagi mahalliy tahdidlarga ham, gibrid urushlar bilan kesishish xususiyatiga ega boʻlgan global muammolarga ham duch kelmoqda.

“Axborot urushi” tushunchasini oʻrganish va aniqlashtirish dolzarbligi uning umumeʼtirof etilgan ilmiy taʼrifining yoʻqligi bilan bogʻliq, ammo bu tegishli falsafiy muammolarni hal qilishga toʻsqinlik qilmaydi. Shu jumladan, quyidagi savollar ochiq qolmoqda: uning vaqt chegaralari qanday? Axborot urushi haqida gapirish kerakmi yoki axborot urushlari haqidami? Bunday urushda kimni dushman va ittifoqchi deb hisoblash kerak? Gumanitar huquq meʼyorlari boʻyicha huquqiy asos raqamli dunyoda jangovar harakatlar eʼlon qilinishini qoʻllab-quvvatlashi kerakmi? Shuningdek, tadqiqot uchun boshlangʻich nuqta sifatida axborot urushi tushunchasida insoniyatning axborot makonini yaratish va oʻzlashtirish jarayonidagi muammolari majmuasini birlashtirish ham shundan kelib chiqadi [2, 101-b.].

Har qanday makonni oʻzlashtirish uni oʻrganish jarayonini ifodalaydi: quruqlik, dengiz va okeanlarni, soʻngra koinotni oʻrganish natijasida yer makoni oʻzlashtirilgan. Dastlab uni qahramonlar va sarguzasht izlovchilar amalga oshirgan boʻlsa, keyinchalik — baʼzi hollarda faqat — olimlar va yuqori malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshirildi. Bugun yana, raqamlashtirish texnologiyalarining jadal rivojlanishi va joriy etilishi tufayli, internetga kirish imkoniyatiga ega smartfoni boʻlgan jahon hamjamiyatining barcha aʼzolari, yangi media maydonlarini ham, global axborot makonini ham oʻrganishda peshqadamlar boʻlishi mumkin yoki allaqachon shunday boʻlib qolgan. Biroq, kirish va jarayonga qoʻshilishning bunday soddalashtirilishi xavf-xatarlar va tegishli xavfsizlikni taʼminlash hamda axborot oqimini nazorat qilish muammolarini bartaraf etmaydi.

Soʻnggi paytlarda matbuotda yadroviy urushlar oʻrniga kelayotgan yangi turdagi urushlar — “axborot urushlari” paydo boʻlayotgani haqida maqolalar paydo boʻlmoqda. Maʼlumki, jurnalistlar ommaviy axborot vositalari olamiga olib kirgan “axborot urushi”, “axborot quroli” kabi atamalarni anglash uchun tahliliy faoliyat bilan shugʻullanmaydilar va mutaxassislar sukut saqlagan sharoitda sirni oʻrab olgan “axborot vakuumi” holati yuzaga keladi. Bu sir yanada sirliroq va dahshatliroq boʻlib boradi. Bundan tashqari, mutaxassislardan farqli oʻlaroq, baʼzi yozuvchilar “masalan, kompyuter foydalanuvchisining organizmi zaiflashganda, ekran orqali rangli, tovushli va boshqa signallarning nurlanish toʻplamini shunday kodlash mumkinki, ular ong osti orqali taʼsir qilib, oʻz qurbonining bioritmlarini shu darajada buzadiki, odam bardosh bera olmaydi va halok boʻladi” [3, 55-b.]

**Muhokama.** Axborot urushi obyektlarini ham ikki asosiy guruhga ajratish mumkin:

1. Axborot-texnik tizimlar (EHM, jumladan maʼlumotlarni qayta ishlash markazlari, serverlar; aloqa kanallari, shu jumladan qabul qiluvchi va uzatuvchi stansiyalar, simli va simsiz maʼlumot uzatish kanallari; axborot-tahlil tizimlari (dasturlar) va hokazo).

2. Axborot iste'molchilari va foydalanuvchilarining ruhiyati hamda ongi (dunyoqarashi). Bular axborotga kirish huquqiga ega boʻlgan, uni olgan va turli maqsadlarda foydalanuvchi jismoniy va yuridik shaxslar, masalan, fuqarolar (jamoatchilik, iste'molchilar), mutaxassislar (ekspertlar, tadqiqotchilar, tahlilchilar), korxonalar (axborot ta'siri subyektlariga kirmaydigan tashkilot va muassasalar) xodimlaridir. Axborot urushining asosiy yoʻnalishlari nuqtai nazaridan, tadqiqotchilarning asarlarida mavjud boʻlgan oʻn bitta paradigmani ajratib koʻrsatish mumkin [4, 65-b.].

1. Tizimli
2. Innovatsion-sinergetik
3. Evolyutsion
4. Falsafiy
5. Psixologik
6. Ijtimoiy-madaniy(psixologik yondashuvning bir koʻrinishi sifatida)
7. Kommunikativ(psixologik yondashuvning bir koʻrinishi sifatida)
8. Konfliktologik(psixologik yondashuvning bir koʻrinishi sifatida)
9. Kibernetik(texnikaviy)
10. Geopolitik
11. Iqtisodiy [4, 66-b.].

Shuni ta'kidlash lozimki, ayni bir ishda koʻpincha axborot urushining turli jihatlari koʻrib chiqiladi. Shu bois, bunday tadqiqotlarni bir vaqtning oʻzida bir nechta paradigmaga kiritish mumkin (bunday tadqiqotlarning koʻp paradigmaliligini ta'kidlash oʻrinlidir). Eng umumiy paradigma tizimli paradigma hisoblanadi. U axborot urushlarini murakkab tizimlar sifatida koʻrib chiqadi. Bu tizimlar turli xil oʻzaro bogʻliq tarkibiy qismlarni (axborot manbalari, tarmoqlar va qabul qiluvchilar, ong, odamlarning ong osti, kognitiv va boshqa obyektlar) hamda ma'lum maqsadlarga erishish uchun oʻzaro ta'sir qiluvchi quyi tizimlarni oʻz ichiga oladi.

**Natijalar.** Psixologik (kognitiv, mental, ongga oid) paradigma eng keng tarqalgan paradigmalardan biri boʻlib, fuqaro aholisi va harbiy xizmatchilar ongiga psixologik ta'sir koʻrsatish, kognitiv jarayonlarni tushunish, ta'sir oʻtkazish va himoyalanish usullariga e'tibor qaratadi. Inson xulq-atvori antropologiya, psixologiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik, psixolingvistika kabi koʻplab fanlar tomonidan oʻrganiladi. U asosan kognitiv psixologiya obyekti hisoblanib, bilimlar, e'tiqodlar va siyosiy qarashlarning shakllanishi bilan bogʻliq. Psixologik yondashuv koʻplab olimlarning asarlarida kuzatiladi. Bu doirada yana bir nechta kvaziparadigmalarni ajratish mumkin: ijtimoiy-madaniy, kommunikativ va konfliktologik. Shuningdek, ushbu paradigmaga turli mualliflar tomonidan taklif etilgan urushlarning sinonim nomlarini kiritish mumkin: memologik urush, ongga qarshi urush, aqliy urush, kognitiv urush, insoniylikdan chiqarish urushi, ma'naviy yoʻnalishni yoʻqotish urushi va boshqalar. Psixologik urushning "sof koʻrinishi" Pol Laynbarjer, Gerxard Zazvorka, kichik J. Nay, I.N. Panarin, D.Yu. Peretolchin va I. Stechkin tomonidan oʻrganilgan. Alohida e'tibor Jozef Nay kichik ilmiy ishlariga qaratilishi lozim. U "yumshoq kuch" atamasini taklif etgan boʻlib, bu atama siyosiy hokimiyatning bir shaklini anglatadi. Yumshoq kuch qattiq kuchdan farqli oʻlaroq, koʻzlangan natijalarga ixtiyoriy ishtirok va xayrixohlik asosida yashirin tarzda erishish imkonini beradi. Qattiq kuchdan foydalanishda esa hukmronlikka erishishning asosiy vositalari pora va jismoniy zoʻravonlik (kinetik qurol) yordamida majburlashdan iborat [5, 191-b.]. Keyinchalik bu gʻoya yanada rivojlandi va ilmiy muomalaga "aqlli kuch" ("smart power") hamda "oʻtkir kuch" ("sharp

power") atamalari kiritildi. "Aqlli kuch" qattiq va yumshoq kuch vositalarini uygʻunlashtirgan holda hokimiyatni qoʻlga kiritish usuli sifatida tushuniladi [6, 1-8-bb.]. "Oʻtkir kuch" esa hokimiyatni qoʻlga kiritish usuli boʻlibgina qolmay, tezkor ("oʻtkir") raqamli vositalardan foydalangan holda olib boriladigan tashqi siyosiy faoliyatni ham anglatadi. Bu faoliyat, asosan, "demokratik" davlatlarning ichki ishlariga aralashish orqali (bu "avtoritar rejimlar" tomonidan amalga oshiriladi deb hisoblanadi) aholining jamoatchilik fikrini boshqarish va ularni oʻz hukumatlariga qarshi qoʻporuvchilik harakatlariga undashni maqsad qiladi [7, 188-b.]. Axborot urushida qoʻllaniladigan psixologik yondashuvga turli xil ruhiy taʼsir oʻtkazish usullari kirishi mumkin. Bular jumlasiga mish-mishlar va soxta maʼlumotlarni tarqatish, tahdid qilish, dezinformatsiya va boshqa texnikalarni (usullar, uslublar, vositalar) qoʻllash kiradi. Vositalar roʻyxati juda keng boʻlib, unda kognitiv psixologiya, targʻibot, psixolingvistika, jamoatchilik bilan aloqalar, marketing, imidjologiya, freyming va boshqa koʻplab usullar mavjud.

Kibernetik paradigma (texnik yondashuv) kiberhujumlar arxitekturasini va kiberjosuslik usullarini tahlil qilishga, mikroelektronika ishlab chiqarishga, radioelektron taʼsir va qarshi kurash vositalarini yaratishga, aloqa kanallari bilan ishlashga, kriptografiyaga, kibernetika, boshqaruv nazariyasi, tizimlar nazariyasi usullarini qoʻllashga, axborot xavfsizligi texnologiyalarini, xakerlik hujumlarini, kiberjosuslikni va boshqa texnik hamda kibernetik jihatlarni oʻz ichiga oladi. Bunday holatlarda axborot kampaniyasining asosiy maqsadi raqib tomonning axborot tizimini buzish yoki uning ishlash qobiliyatiga putur yetkazish, axborotni olish, qayta ishlash va undan foydalanishga toʻsqinlik qilish yoxud uning buzilishi, parchalanishi, tutib olinishi va boshqa salbiy hodisalarga koʻmaklashishdan iborat boʻlib, pirovardida qisqa, oʻrta yoki uzoq muddatli istiqbolda dushmanning magʻlubiyatiga olib kelishi kerak.

**Xulosa.** Axborot kurashi – bu ijtimoiy tizimlarning axborot-psixologik sohadagi musobaqasi boʻlib, uning maqsadi ijtimoiy munosabatlarning maʼlum sohalariga taʼsirni kuchaytirish va strategik resurslar manbalari ustidan nazoratni oʻrnatishdir. Natijada, raqobatning ayrim ishtirokchilari keyingi rivojlanish uchun zarur afzalliklarga ega boʻladi, boshqalari esa bu imkoniyatlarni yoʻqotadi. Shunday qilib, oʻtkazilgan tahlillar shuni koʻrsatdiki, axborot va bilim asosiy resursga aylangan postindustrial (axborotlashgan) jamiyatda axborot urushi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jarayonlar tarkibida markaziy oʻrinlardan birini egallaydi. Zamonaviy axborot urushi uzoq evolyutsiya jarayonini bosib oʻtdi va koʻplab sabablarga koʻra, birinchi navbatda XX asr oʻrtalarida yadro qurolining paydo boʻlishi, XX-XXI asrlar chegarasida yangi "axborot inqilobi", ommaviy axborot vositalarining ulkan siljishi va kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyatining oshishi, axborot-psixologik taʼsir koʻrsatish texnikasining rivojlanishi tufayli dushmanni magʻlub etishning ancha talabgir va samarali vositasiga aylandi. Hozirgi vaqtda u nafaqat raqamli kommunikatsiya vositalaridan foydalanish boʻyicha maqsadli harakatlarni oʻz ichiga oladigan juda keng hodisa boʻlib, axborot (shu jumladan, zarar yetkazish, oʻgʻirlash va boshqalar) va axborot tizimlari bilan turli xil manipulyatsiyalar orqali dushman ustidan ustunlikka erishish, oʻz axborot tizimlarini himoya qilish, balki uning jamoatchilik fikriga, psixo-emotsional holatiga va xulq-atvoriga taʼsir qilishni ham oʻz ichiga oladi.

**Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Baudrillard J. Simulacra and simulation. From J. Baudrillard, Selected Writings. Stanford University Press, 1988 / Бодрийяр Ж. Симулякры и симуляция. Перевод: А. Качалов. – М.: Издательский дом «Постум». 2015. С. 109.
2. Поляков Н.А. Специфика информационных войн XX-XXI вв. // Коммуникология: электронный научный журнал. 2020. №1.
3. Расторгуев С.П. Информационная война. - М.: Радио и связь, 1999. - С.55.
4. Сорокин И. Информационные войны как феномен постиндустриального (информационного) общества: основные парадигмы.
5. Nye J. Bound to Lead: The Changing Nature of American Power. - New York: Basic Books, 1990. - 307 p; Nye J. Soft power: The Means to success in world politics. - New York: Public Affairs, 2004. - 191 p.
6. Nye J. Smart power and the war on terror // Asia-Pacific Review. - 2008. - № 15 (1). - pp. 1-8.
7. Nye J. How Sharp Power Threatens Soft Power. Foreign Affairs, 2018.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 10 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati



**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).